

Respublikamizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning keyingi bosqichlarida barcha sohalar kabi, logistika masalasiga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda transport logistikasining rivojlanib borishi va bu borada qilinayotgan ishlar, logistika markazlarini tashkil etilishi, ular tomonidan xizmatlar ko'rsatish sifatining oshirilishi muhim qadamlardan biridir.

O'ZBEKISTONDA XIZMATLAR SOHASI ISLOHOTLAR MARKAZIDA

*L.Raupova, talaba
Qarshi muxandislik iqtisodiyot instituti*

Xizmatlar maxsus tovar sifatida uning bozorini maxsus shartlar asosida amal qilishini talab etadi. Ayniqsa, maishiy xizmatlar bozori o'zining xususiyatlari ko'ra shahar va qishloqlarda bir-biridan farqlanadi. Bu farqlanishlar maishiy xizmatlarni tashkil etilish xususiyatlari, xizmatlar infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi, aholi daromadlari darajasi va h.k.larga bog'liq. Ishda maishiy xizmatlar bozorini qishloq joylarda rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari ko'rsatib o'tildi

O'zbekiston uchun xizmatlar sohasi iqtisodiy faoliyatning nisbatan yangi yo'nalishidir. Respublika informatsion tizimi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni milliy hisobchilik tamoyil (prinsip)lari asosida shakllantirishga o'tishi tufayli uning ahamiyati tobora oshib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev rahbarligida ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o'rni va ulushini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, ularning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o'zgartirish lozimligi ta'kidlangan.

Harakatlar strategiyasida ko'rsatilganidek, quyidagilarni amalga oshirish ko'zda tutildi:

- yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o'rni va ulushini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar tarkibini zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o'zgartirishga erishish;

- qishloq aholi punktlarida xizmat ko'rsatish korxonalarini rivojlantirish, birinchi navbatda kommunal-maishiy, uy-joylarni ta'mirlash va qurish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlash;

- xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlarning faolligini kuchaytirish uchun shart-sharoitlar yaratish, oilaviy tadbirkorlik subektlariga kasb-hunar kollejlari va oliy ta'lif muassasalari bitiruvchilari orasidan yoshlarni jalb etish;

- aholi o'rtasida xizmatlarning talab yuqori bo'lgan yangi, istiqbolli konsalting, bank, moliya, sug'urta, lizing va baholash kabi turlarini jadal rivojlantirish;

- har bir hududning xususiyatlaridan kelib chiqib, xizmat ko'rsatish sohalarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hissasining ulushi oshib borishiga erishish maqsadida shart-sharoitlar yaratish;

- xizmat ko'rsatish sohasini keng rivojlantirish maqsadida mazkur sohada ishlaydigan kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishga alohida e'tibor qaratish;

- ayollarning ish bilan bandligi xizmat ko'rsatish sohalarida o'sib borayotganligini hisobga olib, ular kasbiy faoliyatlarini oilaviy yumushlar, farzandlar tarbiyasi bilan birga uyg'un tarzda yo'naltirishlari uchun bandlikning nostandard turlaridan foydalanish.

2016–2020 yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturi bo'yicha xizmatlar sohasi korxonalari faoliyatini balansli rivojlantirish va diversifikatsiyalashni ta'minlash, ular ko'rsatiladigan xizmatlarning raqobatbardoshliligi va sifatini oshirish maqsadida quyidagi choratadbirlar amalga oshirildi:

- xizmatlar sohasini rivojlantirish hisobiga yalpi ichki mahsulotni ko'paytirib, uning respublika iqtisodiyotidagi ulushini 48,7 foizga yetkazildi;

- 2020 yilga kelib, qishloq joylarda xizmatlarni 1,8 baravarga o'stirishga erishildi;

- muhandislik-kommunikatsiya, yo'l-transport infratuzilmasini rivojlantirish, tarmoqlarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish hisobiga xizmatlar sohasini, tarkibiy o'zgartirishlarni jadal rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratildi;

- raqobat muhiti shakllantirildi, kichik va xususiy tadbirkorlik subektlarini rivojlantirishga ko'maklashildi;

- turli innovatsiya xizmatlari va yangi aloqa vositalari kengaytirildi;

- aholining telekommunikatsiya tarmoqlaridan foydalanish texnik imkoniyatlari ta'minlandi, ular asosida sifatli xizmatlar ko'rsatish, telefon aloqasi va televideniyening raqamli tizimlariga o'tildi, 2020 yilga borib, aloqa va axborotlashtirishning respublika iqtisodiyotidagi ulushi 2,5 foizga yetkazildi;

- eng yangi elektron to'lov texnologiyalarini joriy etgan holda moliya xizmatlari rivojlantirildi;

- sog'liqni saqlash sohasida yuqori texnologiyali xizmatlar yanada rivojlantirildi.

Iqtisodiy globallashuv sharoitida mamlakatlarning o'zaro integratsiyalashuvi va xalqaro ixtisoslashuvning kuchayishi har bir milliy iqtisodiyot oldiga ishlab chiqarish tarmoqlarini modernizatsiya qilish va diversifikatsiyalash, aholiga ko'rsatiladigan xizmatlarning raqobatbardoshliligi va sifatini oshirish va shu orqali hududlar moliyaviy salohiyatini yuksaltirish vazifasini qo'ymoqda.

Mamlakatimizda milliy iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, bandlikni ta'minlash, aholining daromadi va turmush sifatini oshirishning muhim omil va yo'nalishlaridan biri tariqasida xizmat ko'rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish ustuvor masalalardan biridir. Xizmatlar sohasi sotsial-iqtisodiy kategoriya sifatida iste'molchilarga xizmat ko'rsatish turlarining keng spektrdagи takror ishlab chiqarishini qamrab olib, ularning har biriga maxsus faoliyat turi mos keladi.

Xizmatlar tovarlardan farqli o'laroq, moddiy obektlar shaklini ololmaydi. Xizmatlarni amalga oshirish va ularni ishlab chiqarish bir-biridan ajralmasdir. Xizmatlar iste'molchilarining buyurtmasi bo'yicha ishlab chiqaruvchilar tomonidan

amalga oshiriladigan turli faoliyat natijalarini ifodalaydi va odatan birliklar holatini o‘zgartirishga olib keladi.

Xizmatlarni amalga oshiruvchilar tomonidan iste’molchilar intiladigan o‘zgarishlar quyidagi holatlarga ko‘ra bog‘liq bo‘lishi mumkin:

- iste’mol tovarlarining holati bilan: xizmatni ishlab chiqaruvchi iste’molchiga tegishli tovarlar bilan muayyan operatsiyalarni, ya’ni ularni tashish, tozalash, ta’mirlash kabi ishlarni amalga oshiradi;

- insonning jismoniy holati va ma’naviy rivojlanishi bo‘yicha: xizmatni amalga oshiruvchi insonlarga terapevtik yoki jarrohlik yordami ko‘rsatadi, ularning tashqi ko‘rinishini o‘zgartiradi, ta’lim, informatsion va maslahat xizmatlarini ko‘rsatadi, ko‘ngilochar dasturlarni tashkil qiladi va h.k;

- institusional birliklarning umumiy iqtisodiy holatiga ko‘ra: ishlab chiqaruvchi sug‘urta, moliyaviy vositachilik bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatadi, himoyani ta’minlaydi, kafillik beradi va h.k.

Bunday o‘zgarishlar vaqtinchalik yoki doimiy xarakterga ega bo‘lishi mumkin. Chunonchi, tibbiy xizmatlar yoki ta’lim sohasida xizmatlar ko‘rsatish natijasida iste’molchilar holatida uzoq muddatli o‘zgarishlar ro‘y berishi va bu o‘zgarishlarning afzalligidan uzoq yillar mobaynida foydalanish mumkin. Bir guruh tarmoqlar, tovarlarning ko‘pgina xususiyatiga ega bo‘lgan mahsulot ishlab chiqarish bilan shug‘ullansa ham odatan xizmatlar sohasi kabi tasniflanadi. Bu guruhga informatsion dasturlarni yaratish, yangiliklar va maslahat xususiyatiga ega bo‘lgan materiallarni tayyorlash, dasturiy ta’minotni ishlab chiqish, kinofilmalar va musiqa dasturlarini yaratish va shu kabillar kiradi.

Egalik huquqi o‘rnatilgan bu tarmoqlarning mahsuloti ko‘pincha moddiy ko‘rinishdagi tarqatuvchilar (qog‘oz, magnit lentalar, disk va shu kabilar)da saqlanadi. U oddiy tovarlar kabi sotilishi va sotib olinishi mumkin. Xizmat sohasiga tegishli bo‘lgan faoliyat turlarining turli - tumanligi bu sohada statistik kuzatishning ikki oqimdagisi tizimini yuzaga keltiradi. U yoki bu turdagи xizmatlar turining xususiyati asosan natural ko‘rsatkichlarni ishlab chiqadigan mos holdagi tarmoqlar statistikasi (transport, aloqa, savdo, sog‘liqni saqlash, ta’lim, madaniyat, turarjoy-kommunal xo‘jaligi kabi statistikalari)ning tadqiqot predmeti hisoblanadi. Xizmatlar realizatsiyasining umumlashgan qiymat tavsifnomasi xizmatlar statistikasi tomonidan o‘rganiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, xizmatlar sohasini modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni, uning tarkibini zamon talablariga mos holda o‘zgartirishni amalga oshirishni optimal tarzda olib borish YAIMda qo‘silgan qiymat hajmini ko‘paytirishning muhim omili bo‘lib qoladi. Hozirgi davrda respublikamiz iqtisodiyotida xizmat ko‘rsatish sohalarining ulushi salmoqli ravishda o‘sib bormoqda. Xizmat ko‘rsatish sohalarining bunday o‘sishini bir qator omillar ta’siri xususan, bozorda yangi-yangi o‘nlab turdagи xizmatlarning paydo bo‘lishi, ya’ni kredit kartalari orqali to‘lovlar, internet-savdo, yangi savdo-sotiq markazlari, ovqatlanish korxonalar, mehmonxonalar ochish, ta’lim xizmatlarini kengaytirish, dam olish san’ati, turizm va hokazolar bilan izohlash mumkin.